

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 182 (1243), 2024-yil 9-sentabr, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI BUTUNJAHON KO‘CHMANCHILAR O‘YINLARINING OCHILISH MAROSIMIDA ISHTIROK ETDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Qozog‘iston poytaxtiga keldi.



Ostona xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida V Butunjahon ko‘chmanchilar o‘yinlarining tantanalı ochilish marosimida ishtirok etdi.

“Ostona arena”da bo‘lib o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Tatariston Raisi Rustam Minnixonov va boshqa xorijiy mehmonlar ham qatnashdi.

Musobaqada dunyoning 90 ga yaqin davlatidan 2 mingdan ortiq sportchi, jumladan, O‘zbekiston vakillari ishtirok etmoqda. Hamyurtlarimiz kurash, alish, arqon tortish, kamondan o‘q otish, poyga, pahlavonlar bellashuvi kabi yo‘nalishlarda kuch sinashadi.

Iштиrokillarga ko‘chmanchi xalqlarning boy madaniyati va tarixi, an‘ana va urf-odatlariga bag‘ishlangan teatrlashtirilgan tomoshasi namoyish etildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qozog‘iston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

PREZIDENTIMIZ PARALIMPIYA G‘OLIBLARINI TABRIKLADI

Parij Paralimpiadasida qatnashayotgan O‘zbekiston delegatsiyasi hisobidagi oltin medallar sonini 10 taga yetkazib, tarixdagi eng yaxshi natijasini yangiladi. O‘z yutuqlari bilan ushbu yuksak g‘alabaga hissa qo‘shgan yengil atletikachilarimiz Nurxon Qurbonova va Tolibboy Yo‘ldoshev bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev telefon orqali suhbatlashdi va ularni dildan tabrikladi.

— Muntazam faoliyatini kuzatib boraman. Olimpiya shaharchamizda qurilishni boshlaganimizda “Paralimpiadadan oltin bilan kelaman”, degan yoqimli so‘zlaring esimda. Bu nimadan

dalolat? Tinimsiz harakat, irodali intilishlarning bilan tobora o‘sib bor-yapsan. Bergan va‘dangni ortig‘i bilan bajarding, — deya davlatimiz rahbari bir yo‘la jahon rekordini o‘rnatgan va uni

yana yangilagan Nurxon Qurbonovani tabrikladi.

— Bir necha kun oldin yadro uloqtirish bo‘yicha bronza medalini olgan eding. Ikki sport turi bo‘yicha ikkita yuksak natija — bu

chinakam jasorat. Bu yutuqlar mashaqqatli mehnatlarning, tinimsiz mashqlarning, to‘plagan boy mahoratning mevasidir, — dedi Prezidentimiz Tolibboy Yo‘ldoshev bilan suhbatda.

Chempion paralimpiyachilarimiz bu yutuqlar o‘z-o‘zidan bo‘lmagani, davlatimiz rahbarining paralimpiya harakatiga qaratilgan e‘tibori va ishonchi tufayli erishilayotganini ta‘kidlab, o‘z nomidan, murabbiylari va ota-onasi nomidan minnatdorlik bildirdi.

O‘ZA

DOLZARB MAVZU

KELAJAKNI QUTQARISH TASHABBUSI

yoxud O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish tajribasi jahon hamjamiyati diqqat e‘tiborida

BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekistonning yana bir tashabbusi — “Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oq hududlarda barqaror o‘rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ‘ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qildi.

E‘tirof etish joizki, mazkur rezolyutsiya Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan, shahar va qishloq hududlarini ko‘kalamzorlashtirish orqali bioxilma-xillikni saqlash va tiklashga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy dasturi konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan. Hujjatda davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi va BMT iqlim bo‘yicha 28-konferensiyasida bildirgan asosiy takliflari o‘z ifodasini topgan.

Rezolyutsiya qabul qilinishi bilan bog‘liq jihat keyingi kunlarda nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo jamoatchiligi, xalqaro ekspertlar

tomonidan keng e‘tirof etilmoqda. Xo‘sh, uning muhimlik tomoni nimada, insoniyat uchun qanday ahamiyati bor?

Ma‘lumki, bugungi kunga kelib, iqlim o‘zgarishi va u keltirib chiqarayotgan inson salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi turli xatarlar dunyoning global muammolaridan biriga aylandi. Jumladan, yuqori sanoatlashuv sharoitida atmosferada zararli gazlar miqdori ko‘payib, bir qancha ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suv taqchilligi, yer sho‘rlanishi, havoga chang to‘zon ko‘tarilishi yangidan-yangi ekologik tahdidlarni paydo qilmoqda.

▶ Davomi 3-betda



XALQARO TO‘QIMACHILIK ISHLAB CHIQUVCHILARI FEDERATSIYASI VA XALQARO KIYIM-KECHAK FEDERATSIYASINING QO‘SHMA KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Xonimlar va janoblari!

Avvalo, siz, azizlarni bugungi nufuzli anjuman — Xalqaro to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasi va Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasining qo‘shma konferensiyasi ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu qo‘shma konferensiya O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazilayotgani uchun Xalqaro to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasi prezidenti Key Vi Shrinivasan va Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasi prezidenti Chem Altan janoblariga alohida minnatdorchilik bildiraman.

Mazkur anjumanda qatnashayotgan sohaning yuqori martabali vakillariga, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlariga ham tashakkur izhor etaman.

Qadimiy buyuk ipak yo‘li durdonasi, usta hunarmandlar yurti bo‘lgan azim Samarqand shahriga xush kelibsiz!

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Biz keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish borasida qat‘iy qadamlar tashladik.

Har bir soha va tarmoqda bo‘lgani kabi, to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoatida ham keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Eng avvalo, paxta yetishtirishda davlat monopoliyasiga barham berildi, xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonni to‘liq qamrab olgan klaster tizimi yaratildi va bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda.

Sohadagi islohotlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilib, O‘zbekistonga nisbatan “paxta boykoti” bekor qilindi. Bu borada “Cotton Campaign” xalqaro koalitsiyasi bilan hamkorligimiz davom ettirilmoqda.

Shu bilan birga, barqaror qonunchilik bazasi yaratilgani, investitsiyaviy muhit yaxshilangani, yangi texnologiyalar joriy etilgani natijasida paxta tolasini qayta ishlash 2017-yildagi 40 foizdan 100 foizga yetdi. Ayni vaqtda chetdan tola va xomashyo olib kelib, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish borasidagi ishlar ham boshlandi.

Sohada yaratilgan imkoniyatlar tufayli to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 barobar ko‘paydi, ularning eksporti 4 karra ortdi.

Eng muhimi, ilgari sohada eksportning salmoqli qismi, ya‘ni 70 foizi xomashyo hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugungi kunda chetga sotilayotgan tovarlarning 60 foizini tayyor mahsulotlar tashkil etmoqda.

Biz islohotlarni boshlagan ilk davridayoq inson kapitalini rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yoshlar va ayollarni kasbga o‘rgatish, barcha sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik va bu masalalar bundan buyon ham diqqatimiz markazida bo‘ladi.

Korxonalardagi ishchilar uchun xalqaro talablarga javob beradigan, munosib mehnat sharoitlari yaratilmoqda, “Better

Work” va “Better Cotton” dasturlari tizimli joriy etilmoqda.

Sohada band bo‘lgan 600 mingdan ziyod aholining mehnat huquqlarini ta‘minlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, to‘qimachilik sohasida milliy brendlarni yaratish, mamlakatimizga nufuzli xalqaro va xorijiy brendlarni jalb etish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rilmogda.

Mamlakatimizda Germaniyaning “Teamdress”, Italiyaning “Cotonella”, Singapurning “Indorama”, Koreyaning “Posco International” va “Gwangyang” kompaniyalari kabi jahon bozorining nufuzli ishtirokchilari samarali faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati jahondagi ishlab chiqarish jarayonlariga faol integratsiya bo‘lib, dunyoning barcha qit‘alarida ishonchli hamkorlarimiz ko‘paymoqda.

Ta‘kidlash joizki, xorijiy investorlar va xalqaro brendlar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, milliy brendlarni xalqaro darajaga olib chiqish — kelgusida ham to‘qimachilik sanoatidagi ustuvor yo‘nalishlarimiz bo‘lib qoladi.

Ishonchim komil, bugungi konferensiyaga ushbu sohada o‘zaro hamkorlikni xalqaro miqyosda yanada yuksaltirish va mustahkamlash, ilg‘or tajriba va g‘oyalarni almashish uchun samarali platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Bu esa, anjumanda ishtirok etayotgan 500 dan ziyod milliy va xalqaro tashkilotlar, ishlab chiqaruvchilar va “riteyli” kompaniyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirib, soha rivojini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi, deb umid qilaman.

Biz xorijiy hamkorlarimizning o‘zaro manfaatli barcha tashabbuslarini yuksak baholaymiz va qo‘llab-quvvatlaymiz. Jumladan, xalqaro brendlar O‘zbekistonga kirib kelishi uchun zarur standartlarni joriy etishda har tomonlama ko‘maklashamiz.

Nufuzli xalqaro tashkilotlarga konferensiya, ko‘rgazma, moda namoyishlarini yurtimizda, ayniqsa, turizm va sanoat salohiyati yuqori bo‘lgan Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon, Namangan, Andijon shaharlarida muntazam o‘tkazib borishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz.

Aminmanki, yurtimizning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, mehnatkash va olijanob xalqimiz bilan uchrashuvlar sizlarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, hududlarimizning ulkan ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati esa, investorlarni yangi-yangi loyihalarni amalga oshirishga undaydi.

Sizlarni bugun o‘z ishini boshlayotgan yirik anjuman bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Kaxa IMNADZE:
“MARKAZIY OSIYO — DO‘STONA VA O‘ZARO MUNOSABATLARDI DUNYONING BOSHQA MINTAQALARI UCHUN NAMUNA BO‘LMOQDA”

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari yangi O‘zbekiston va yangi Markaziy Osiyoning uyg‘onish davri haqida

Bugun Markaziy Osiyo mintaqasi sheriklik va o‘zaro manfaatli hamkorlikning keng hududiga aylanib bormoqda. Mintaqa davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa‘y-harakatlari taraqqiyot va farovonlik yo‘lidagi tashabbuslarni birlashtirishga xizmat qildi.

“Dunyo” axborot agentligi BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo‘yicha

maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze bilan mintaqaning geosiyosiy ahamiyati va unda sodir bo‘layotgan jarayonlar haqida suhbatlashdi.

▶ Davomi 4-betda



JAMIYATNI MODERNIZATSIYA QILISH VA DEMOKRATLASHTIRISH

Aralash saylov tizimining undagi o'rni va ahamiyati

Bekzod JAMIYEV,

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali direktori o'rinbosari,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Aralash saylov tizimi, bu — proporsional va majoritar tizim elementlarini birlashtirgan saylovlarni tashkil etishga innovatsion yondashuv. Saylovning ushbu tizimi turli siyosiy kuchlar vakillari va siyosiy boshqaruv barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Bu esa uni zamonaviy demokratik tizimlarda samarali vositaga aylantiradi. Shu bois, ushbu model dunyoning turli mamlakatlarida faol qo'llanilyapti va u jamiyatni modernizatsiya qilish hamda demokratlashtirishda muhim rol o'ynamoqda.

Vakillikning xilma-xilligini hisobga olgan holda aralash saylov tizimi sizga vakillikning mutanosib va aksariyat jihatlarini hisobga olish imkonini yaratadi. Bu saylovchilarning siyosiy imtiyozlarini yanada aniqroq aks ettirishga yordam beradi. Aralash saylov tizimining aksariyat elementlari alohida saylov okruglarida jonli siyosiy raqobatning paydo bo'lishiga zamin yaratadi, bu esa vakillik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tizim barqaror hukumatlar shakllanishiga, mutanosib elementlar esa siyosiy qarashlarning keng doirasini aks ettiruvchi parlamentlarni shakllantirishga imkon beradi.

Aralash saylov tizimining jamiyatni demokratlashtirishdagi ahamiyati quyidagicha:

— ko'p saylov elementlari mavjudligi yanada barqaror va bashorat qilinadigan siyosiy tuzilmalarni ta'minlash orqali ekstremistik va radikal tendensiyalarni ushlab turishga yordam beradi;

o'tgan, saylovchilarning xohish-istaklari, talablariga to'la javob beradigan, saylovni aholi uchun eng maqbul shaklda tashkil etish va o'tkazish tartiblari hamda saylov tizimlari mavjud. Ular, ayniqsa, aralash saylov tizimidan samarali foydalanib kelmoqda. Shu sababli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi asosida o'tkazish tartibi belgilangan.

Jumladan, Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra:

— Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun 75 ta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi;

— Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekistonning butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi;

— partiya ro'yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinganidan keyin, ushbu ro'yxatga

saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarning 7 va undan ko'proq foizini to'plagan siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlanadi.

Agar saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarning 7 va undan ko'proq foizini faqat bitta siyosiy partiya to'plagan bo'lsa, unda deputatlik o'rinlari saylovda saylovchilarning eng ko'p ovozi to'plagan ikkinchi siyosiy partiya ham taqsimlanadi.

Demak, joriy yil oktabrda rejalashtirilgan saylovda Qonunchilik palatasining 75 deputati avvalgidек bevosita bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 deputat siyosiy partiyalarning saylovda olgan ovozlari soniga proporsional tarzda, partiya tomonidan taqdim etilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxati bo'yicha saylanadi.

Ma'lumki, siyosiy partiyalar aholining eng faol, dunyoqarashi, maqsadi, fikrlari mustarak bo'lgan muayyan qismini o'z safida birlashtirgan va umumxalq manfaatlari yo'lida siyosiy hokimiyat uchun kurashadigan siyosiy tashkilot bo'lgani bois, fuqarolikjamiyatining boshqa institutlaridan ajralib turadi. Siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida davlat organlarining shakllanishi va siyosiy qarorlarning qabul qilinishida tobora muhim omilga aylanib bormoqda. Davlat hokimiyatini erkin va oshkora, muqobilik asosida o'tkaziladigan saylovlar orqali shakllantirish demokratiyaning oliy ko'rinishi hisoblanadi. Saylovlar orqali inson va fuqaroning eng muhim konstitutsiyaviy siyosiy huquqlaridan biri ro'yobga chiqariladi.

Jamiyatimizda mafkuraviy xilma-xillik, ko'pfikrlilik shakllanib borayotgani sababli siyosiy partiyalar o'rtasida ham o'ziga xos bahs-munozaralar ketmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 5 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 22-avgust kuni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar rahbarlari bilan uchrashuvda "Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi", deya ta'kidlagan edi.

Saylovlar siyosiy partiyalar uchun o'ziga xos imtihon vazifasini o'taydi. Saylovlarning ko'ppartiyaviylik va muqobilik, oshkoralik va transparentlik tamoyillari asosida, dunyoda umume'tirof etilgan demokratik standartlarga mos holda o'tishi ko'p jihatdan siyosiy partiyalarning ushbu jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rishi hamda chuqur o'ylangan yangi g'oya va maqsadlar, dasturlar bilan ularda faol ishtirok etishiga bog'liq.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga saylov shu vaqtga qadar majoritar saylov tizimi asosida o'tkazib kelingan bo'lsa, saylov qonunchiligiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlarga muvofiq endilikda parlamentimizning quyidagi palatasiga saylovlar aralash saylov tizimida, mahalliy kengashlarga saylov esa majoritar saylov tizimida o'tkaziladi. O'z navbatida, aralash saylov tizimi siyosiy partiyalar faoliyatiga yangicha yondashuvlarni joriy qilishni taqozo etadi.

Umuman olganda, aralash saylov tizimi yondashuvlarning xilma-xilligini namoyish qiladi, bu esa, o'z navbatida, siyosiy institutlarni muayyan siyosiy va madaniy sharoitlarga moslashtirish, demokratik jarayonlarni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Aralash saylov tizimini joriy qilish orqali har bir mamlakat uni o'ziga xos sharoitlarga moslashtiradi, bu esa yanada adolati vakillik boshqaruvini tashkil etish imkonini beradi. Dunyoning turli mintaqalarida undan muvaffaqiyatli foydalanish misollari ushbu tizimning zamonaviy demokratik amaliyotdagi samaradorligi va ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, aralash saylov tizimi jamiyatlarni modernizatsiya qilish va demokratlashtirishda muhim rol o'ynaydi, siyosiy barqarorlik, qonuniylik va fuqarolarning siyosiy jarayonga jalb etilishini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi.

TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR HARAKATI — O'ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI I KONGRESSI TO'G'RISIDA

2024-yil 7-sentabr kuni Toshkent shahrida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining I Kongressi bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar kengashlaridan saylangan delegatlar, Siyosiy Kengash, Markaziy taftish komissiyasi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi a'zolari, partiya faollari va OAV vakillari ishtirok etdi.

Kongressda partiyaning o'tgan 5 yillik faoliyati tahlili, istiqboldagi rejalari muhokama qilindi. Shuningdek, muhim ijtimoiy-siyosiy voqea — bo'lajak saylovlarga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq ishlar atroflicha ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, partiya a'zolari soni 2020-yil boshidagi 745 ming nafardan deyarli 2 barobarga ortib, 1 million 600 mingdan ziyodga yetdi. Shu tariqa O'zLiDeP O'zbekistonning siyosiy sahnasida eng ko'p sonli a'zolar va tarafdorlariga ega bo'lgan, farovon hayotni ta'minlashda yetakchi o'rinda ega xalqchil partiya a'ylana oldi.

Partiya eng yorqin tashabbuslardan biri — **Konstitutsiyamizni isloh qilish g'oyasi** bilan siyosiy maydonga chiqdi va ushbu jarayonda faol ishtirok etdi. Konstitutsiyadagi yangi normalar "inson — jamiyat — davlat" konsepsiyasiga qat'iy amal qilingan holda tayyorlandi.

Parlamentdagi O'zLiDeP fraksiyasi deputatlari partiya Saylovoldi dasturidagi maqsad va g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonunlar qabul qilinishida faollik ko'rsatdi. Shu bilan birga, 41 ta qonun loyihasini ishlab chiqishda tashabbuskor bo'ldi. Xususan, **Soliq, Bojxona, Yer va Shaharsozlik kodekslari** yangicha biznes muhitini rag'batlantiradigan normalar bilan boyitilib, yanada liberalashtirildi.

Partiya Saylovoldi dasturidan alohida o'rinni olgan biznes yuritish uchun qo'shimcha qulayliklar yaratuvchi va huquqiy kafolatlarni ta'minlovchi **Tadbirkorlik kodeksi** ishlab chiqildi.

Shuningdek, ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilib, undan samarali foydalanildi. 12 marotaba "Hukumat soati", 6 marta "Parlament eshituvi" o'tkazilgani barobarida tegishli vazirlik va idoralarga 11 marta "Parlament so'rovi" yuborilib, ular bo'yicha axborotlar tinglandi. Elektorat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 730 ta deputatlik so'rovi yuborildi.

O'tgan vaqt mobaynida mahalliy kengashlardagi partiya deputatlik guruhlari ham faol ish yuritdi. Ular tomonidan 10 ming marotaba hududiy ijro organlari rahbarlarining hisobotlari tinglandi, 53 mingdan ziyod deputatlik so'rovi yuborildi.

Kongressda partiyaning kelgusi besh yillikdagi muhim strategik hujjati — yangi Saylovoldi dasturi loyihasi muhokama qilindi. Ta'kidlanganidek, partiya "O'zbekiston — 2030" strategiyasini to'liq amalga oshirish mas'uliyatini zimmasiga olgan yetakchi siyosiy kuch sifatida parlament saylovlariga **5 maqsad — 500 vazifani** o'z ichiga qamrab olgan yangi dastur bilan kirib bormoqda.

O'zLiDeP **"Erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni birgalikda quramiz!"** shiori ostida barqaror iqtisodiy o'sish orqali har bir inson, oila va jamiyat farovonligiga erishishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilagan.

Partiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi qisqa vaqt davomida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmandlarga ko'maklashish, ochiqlik siyosatini yuritish, mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro nufuzini oshirish bo'yicha tarixiy islohotlar amalga oshirilganini e'tirof etgan holda, bu boradagi ishlarni izchil va qat'iy davom ettirish O'zbekistonni yuksaltirishning yagona to'g'ri yo'li, deb hisoblaydi.

O'zLiDeP iqtisodiy yo'nalishda liberal tamoyillarga asoslangan erkin bozor munosabatlarini qo'llab-quvvatlovchi tashabbuslarga sodiq qolgan holda, biznes yuritishni yanada soddalashtirish, litsenziyalarni sonini **2 barobarga qisqartirish**, mingga yaqin byurokratik talablarni bekor qilish, **soliq ma'murchiligini soddalashtirish**, tadbirkorlar uchun soliq to'lashda adolati sharoitlar yaratish kabi vazifalarni belgilab olmoqda.

Shu bilan bir qatorda, partiya Saylovoldi dasturida mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilga borib **160 milliard dollarga**, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni esa **4 ming dollarga**, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini **45 milliard dollarga** va yuqori daromadli 2,5 million ish o'rinlarini

shiorini amaliyotga tatbiq qilgan holda 1 million xonadonli uy-joylar qurish kabi tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Xalq xizmatidagi adolatli, zamonaviy davlatni barpo etish borasida davlat xizmatlarining kamida **300 tasini (40 foizini) xususiy sektorga** o'tkazish va fuqarolarning shaxsiy ishtirokini 2 barobarga qisqartirish, mahallalarni "bir qadam" tamoyili asosida fuqarolarning murojaatlari hal etiladigan maskanga aylantirish, tadbirkorlar faoliyatiga belgilangan hollardan tashqari aralashgani uchun mansabdor shaxslar javobgarligini kuchaytirish masalalari ham dasturda ko'zda tutilgan.

Delegatlar yangi Saylovoldi dasturi loyihasini ma'qulladi va ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishga tayyorligini bildirdi.

Kongressda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovida faol ishtirok etish masalalari muhokama qilindi. Nomzodlarni ko'rsatish jarayoni partiyaning kelgusi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda qabul qilingan qarorlar partiyaning saylovlardagi muvaffaqiyatini belgilaydigan omillardan biri hisoblanishi qayd etildi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga bir mandatli okruglar (majoritar tizim) bo'yicha 75 nafar, partiya viy ro'yxat (proporsional tizim) bo'yicha 100 nafar nomzod ko'rsatildi.

Nomzodlarning 43 foizi ayollardan iborat, 175 nafar nomzodning barchasi oliy ma'lumotga ega, ularning 63 foizini tadbirkor va fermerlar, iqtisodiyot sohasi vakillari, 25 foizini fan, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy

Kongressda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovida faol ishtirok etish masalalari muhokama qilindi. Nomzodlarni ko'rsatish jarayoni partiyaning kelgusi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda qabul qilingan qarorlar partiyaning saylovlardagi muvaffaqiyatini belgilaydigan omillardan biri hisoblanishi qayd etildi.

— aksariyat hududlar, mintaqaviy xususiyat va manfaatlarni hisobga olishi mumkin, bu, ayniqsa, ko'p millatli yoki federativ davlatlarda o'ta muhimdir. Saylovchilarning yuqori darajadagi siyosiy faolligini rag'batlantirishi mumkin, chunki ular siyosiy jarayonga ta'sir o'tkazish uchun turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mamlakatimizda parlament hamda davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida izchil yangilanishlar, jumladan, davlat boshqaruvida siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, vakillik organlariga saylangan deputat va senatorlarning mas'uliyati va faolligini oshirish borasida tizimli huquqiy islohotlar kechmoqda.

Jumladan, 2023-yil 18-dekabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan Saylov kodeksi va amaldagi yettita qonunga saylov va referendumni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini mamlakatimiz siyosiy hayotida amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijalariga, siyosiy-huquqiy madaniyati yuksalib borayotgan xalqimiz talablariga, shuningdek, rivojlangan demokratik huquqiy davlatlarning ilg'or amaliyotiga uyg'unlashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Saylov kodeksiga kiritilgan yangi normalarga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi, ya'ni majoritar va proporsional saylov tizimi asosida o'tkazish belgilandi. Zero, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda sinovdan muvaffaqiyatli

Aralash saylov tizimini joriy qilish orqali har bir mamlakat uni o'ziga xos sharoitlarga moslashtiradi, bu esa yanada adolati vakillik boshqaruvini tashkil etish imkonini beradi. Dunyoning turli mintaqalarida undan muvaffaqiyatli foydalanish misollari ushbu tizimning zamonaviy demokratik amaliyotdagi samaradorligi va ahamiyatini tasdiqlaydi.

kiritilganlar deputatlikka nomzod maqomini oladi va ularga guvohnoma beriladi;

— partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas;

— deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi;

— ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek, partiya ro'yxati asosida siyosiy partiya ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har 5 nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.

Shuningdek, yagona saylov okrugi bo'yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o'rinlari ushbu



KELAJAKNI
QUTQARISH TASHABBUSIyoxud O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishlariga
qarshi kurashish tajribasi jahon hamjamiyati diqqat e’tiboridaLutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Buni bugun barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz: sayyoramizning qay bir burchagida issiq ob-havodan odamlar jabr chekayotgan bo‘lsa, boshqa joyda suv toshqinlari kuzatilmoqda. Yana qaysi bir issiq go‘shalarda qor, do‘l, yomg‘ir yog‘ib, katta-katta hududlarni suv bosmoqda.

Umuman olganda, iqlimning keskin o‘zgarishi, sahralar kengayishi, cho‘llanish va yer degradatsiyasi, maishiy va sanoat chiqindilarining tobora ortib borishi, atmosferaning zararlanishi, suv resurslari ifloslanishi va tanqisligi, o‘rmonlar va bioxilma-xillikning kamayishi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammoga aylandi.

Bu muammo barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgirdi. Xavf-xatarlar, hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq global muammolar esa o‘z navbatida, barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mana shunday murakkab bir sharoitda iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash borasida amalda sinovdan muvaffaqiyatli o‘tayotgan “Yashil makon” umummilliy dasturi konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan rezolyutsiya qabul qilinishi, ayniqsa, g‘oyat dolzarbdir. Ta’bir joiz bo‘lsa, buni kelajakni qutqarish tashabbusi, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Iqlim migratsiyasi

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib, 216 milliondan ortiq odam iqlim o‘zgarishi sabab o‘z mamlakatlarini tark etishi mumkin. Xususan, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda 5 million iqlim migranti paydo bo‘lishi taxmin qilinmoqda.

Odatda, odamlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillarga ko‘ra, o‘zlari istiqomat qilayotgan makonni tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Hozirgi kunda esa iqlim o‘zgarishi sabab o‘z uylarini tashlab chiqib ketayotgan odamlar soni ortayotir va bu tendensiya kelajakda yana ko‘payishi prognoz qilinmoqda.

Ekspertlarning fikricha, ichki iqlim migratsiyasi kelgusi o‘n yilliklar mobaynida o‘shishi kutilmoqda. Asrning ikkinchi yarmida esa bu jarayon yanada tezlashadi. Agar mamlakatlar global issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirmasa va iqlim o‘zgarishining hozirgi va kelajakdagi ta’siriga yetarlicha qarshilik ko‘rsatmasa, 2030-yil boshida ba’zi davlatlarda iqlim migratsiyasining “qaynoq nuqtalari” paydo bo‘ladi. Ular keyinchalik kuchayib va kengayib boradi.

Iqlim o‘zgarishi, ayniqsa, suv bosimining oshishi, ekin maydonlari hosildorligining pasayishi va bo‘ron tufayli dengiz sathining ko‘tarilishi kabi ta’sirlar natijasida odamlarda qiyinchilik yuzaga kela boshlaydi va ular ko‘chishga majbur bo‘lishi mumkin.

O‘z navbatida, issiqxonalardan chiqadigan gaz chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha qilinadigan shoshilinch sa’y-harakatlar ichki iqlim migratsiyasini 80 foizga kamaytirishi mumkin.

Ayni yo‘nalishdagi
tizimlashtirilgan siyosat

Yuqorida aytib o‘tganlarimiz — “Yashil makon” umummilliy dasturi konsepsiyasi va uning asosida ishlab chiqilgan “Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oq hududlarda barqaror o‘rmonzorlarni barpo etish, daraxt

ekish va ularni targ‘ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” rezolyutsiyasi qabul qilinishidan xulosa qilish mumkinki, ushbu muammolar mamlakatimiz uchun ham begona emas.

Ayniqsa, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda jiddiy sezilmoqda. Mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qoldi.

Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish uchun ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi formatdagi mutaxassis va ekspertlarni tayyorlash, shuningdek, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish talab etiladi.

Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik xavflarni samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali, xalqaro darajadagi mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit tizimi yetarli emasligi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi intellektual va ilmiy salohiyatdan to‘liq foydalanish darajasining pastligi, shuningdek, mintaqaviy darajada barqaror rivojlanishning dolzarb masalalarini o‘rganish bo‘yicha yagona tadqiqot platformasi mavjud emasligi kabi qator muammolar ushbu sohaga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilib, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish hamda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish yo‘nalishlarida tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar, konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 9-avgust kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvidagi nutqida yana bir bor bu muammolarga e’tibor qaratib, qator tashabbus va takliflarni ilgari surdi.

Prezidentimiz o‘z nutqida: “Global iqlim o‘zgarishi oqibatlari mamlakatlarimizning har birida sezilmoqda. Harorat ko‘tarilishi, muzliklar erishi, toshqinlar, qurg‘oqchiliklar, chang bo‘ronlari va boshqa ko‘plab tabiat hodisalari jiddiy talafotlar yetkazishda davom etmoqda.

Joriy yilning noyabr oyida Ozarbayjonda bo‘lib o‘tadigan Iqlim sammiti davomida mamlakatlarimiz yagona pozitsiya bilan chiqishlari mumkin.

Bu o‘rinda so‘z xalqaro jamoatchilik, fondlar va donorlik tashkilotlari e’tiborini ushbu o‘tkir muammolar, jumladan, Orol fojiasiga yechim topishga qaratish maqsadida mintaqadagi ekologik vaziyat haqida qo‘shma taqdimot o‘tkazish haqida ketmoqda.



Bizning yangi takliflarimiz qatorida Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantirish kompleks dasturi, Transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanishning mintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish masalalari ham bor”, dedi.

Markaziy Osiyo atrof-
muhit va iqlim o‘zgarishini
o‘rganish universiteti (Green
University)

Mahalliy, mintaqaviy va global ekologik muammolarni samarali boshqarish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, O‘zbekistonning ilmiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishda innovatsion g‘oyalarni amaliyot va texnologiyalarni tatbiq etish maqsadida Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni

Iqlim
o‘zgarishining
salbiy oqibatlari Orol
fojiasi tufayli Markaziy
Osiyoda jiddiy sezilmoqda. Mintaqada
havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha
ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p.
Favqulodda issiq kunlar soni
2 marta ortdi, muzliklar
maydonining uchdan bir
qismi yo‘qoldi.

muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University) tashkil etilgandi.



Ekologiya va davlat boshqaruvi, magistraturada Ekologiya huquqi, Barqaror rivojlanish, Barqaror moliya, Atrof-muhit sohasida ommaviy kommunikatsiyalar kabi yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlanmoqda.

— Mazkur ta’lim maskani xorijiy, davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, O‘zbekiston, mintaq va jahon ilmiy markazlarini birlashtirishda muhim bo‘g‘in bo‘la oladigan samarali platforma bo‘lib xizmat qiladi, — deydi universitetning akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish bo‘limi menejeri Ibrohimbek Mashrabaliyev. — Bu yerdagi dars jarayonlariga xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari yetuk mutaxassislari bilan tuzilgan shartnomalar asosida malakali xorijiy ekspertlar jalb etilgan. Ilmiy va ta’lim jarayonlarini boshqarishning eng samarali tizimini yaratish, xorijiy ilmiy ekspertlarni jalb etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish choralari ko‘rilmog‘da. Bu borada xalqaro reytinglarda yetakchi o‘rinlarni egallagan jahonning “yashil” universitetlari bilan strategik hamkorlik aloqalari o‘rnatildi.

Ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish maqsadida nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari mutaxassislari bilan birgalikda xalqaro standartlar asosida o‘quv dasturlari



boshqarish va barqaror rivojlanish sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro innovatsion tizimlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ahamiyatli, ta’lim muassasasi Markaziy Osiyoning muhim ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy muammolarini hal etishga qodir kadrlarni tayyorlaydi, eng asosiysi, mintaqaning barcha davlatlaridan kelgan talabalar universitetda tahsil olishi mumkin.

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab abituriyentlarni qabul qilishni boshlagan mazkur oliy ta’lim maskanida bakalavr darajasida Atrof-muhit va barqaror boshqaruv, Atrof-muhit va iqtisodiyot,

yaratildi. Ta’lim jarayonlari ingliz tilida olib borilmoqda.

O‘quv jarayonlariga Buyuk Britaniya, AQSH, nigeriyalik olimlar va nomzodlik dissertatsiyalarini nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari, akademiyalarida yoqlagan mahalliy mutaxassislarni jalb qilingan va xorijiy ilmiy ekspertlarni jalb etish jarayoni davom etmoqda.

Ta’lim sifati va xalqaro muvofiqlikka erishish maqsadida universitet o‘zining akademik dasturlarini turli ta’lim standartlari bilan moslashtirdi.

Xalqaro tashabbus va
normativ-huquqiy hujjatlar

O‘tgan yil dekabr oyida BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasida Prezidentimiz global xavflar mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelgani, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanligini ta’kidlab, qator tashabbuslarni ilgari surgan edi.

Xususan, Parij shartnomasi doirasida iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi global hadli mexanizmi tezroq kelishish, Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasini ishlab chiqish, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish adolatli, shaffof va inklyuziv bo‘lishini aytgandi.

Shuningdek, Xalqaro texnologiyalarni xalqaro ekspozitsiyani yaratishda yaqin hamkorlik, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan “Yashil bandlik” dasturi”ni ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etish, COP

Yoshlar konferensiyasini mamlakatimizda yuqori darajada tashkil etish kabi tashabbuslar shular jumlasidan.

Ayni tashabbuslar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham o‘z aksini topgan. Strategiyaning 51-maqsadida “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish, shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish, iqlim o‘zgarishi sohasida barcha is-siqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish masalasiga e’tibor qaratilgan.

Bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi hamda ayni yo‘nalishdagi tashabbus va vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida joriy yil 23-iyulda davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilangani diqqatga sazovordir. Ushbu hujjat iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha milliy strategiyani hamda ushbu yo‘nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Iqlim kengashi iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi eng yuqori maslahat organi hisoblanadi.

— Mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, aholining hayoti va sog‘lig‘ining yuqori sifati ta’minlashda ekologik xavfsizlik masalalari borasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bo‘lim boshlig‘i Temur Sobitov. — Global ekologik muammolarni keskinlashgan sharoitda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan qonunlar, qonunosti hujjatlari, davlat dasturlarining qabul qilinishi va ularning ijrosi bo‘yicha izchil ishlar olib borilayotgani, bu ishlarda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishi beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Iqlim kengashining asosiy vazifalaridan biri BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi va Parij bitimidan kelib chiqadigan O‘zbekistonning majburiyatlari bajarilishi monitoringini yuritishdir. Shuningdek, farmonga asosan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Yashil transformatsiya va iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy markazi Iqlim o‘zgarishi milliy markazi, deb qayta nomlandi.

Mazkur hujjatning yana bir ahamiyatli jihati, “yashil” texnologiyalar, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun resurslar bilan ta’minlash va moliyalashtirishga, shu jumladan, investitsiyalar jalb qilishga ko‘maklashish belgilangandir.

Bu yo‘nalishda ilmiy va akademik salohiyatni oshirish hamda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida (Green University) Iqlim ilmiy forumi tashkil etiladi.

Shuningdek, Kengash zimmasiga vazirlik va idoralarning iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish ishlarni muvofiqlashtirish, bu boradagi tashqi siyosatni yuritishning yillik ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish vazifasi ham yuklatildi.

Bir so‘z bilan aytganda, qabul qilinayotgan bu singari huquqiy hujjatlar tabiatni toza va sof holda asrash, aholi uchun sog‘lom turmush sharoitini yaratish, eng asosiysi, kelajak avlodning tabiat ne’matlaridan to‘laligicha bahramand bo‘lishini ta’minlashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi bilan muhim o‘rin tutadi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan esa O‘zbekiston tashabbusining bir ovozdan qo‘llab-quvvatlanib, “Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oq hududlarda barqaror o‘rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ‘ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” rezolyutsiyasi qabul qilangani dunyo kelajagini saqlab qolishda dolzarb ahamiyatga ega ekani bilan qiymati bebahodir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Mamlakatimiz Olimpiya o‘yinlari tarixida yangi rekord natija qayd etdi. Yurtimiz vakillari Parij Olimpiadasida 8 oltin, 2 kumush, 3 bronza medal jamg‘arib, O‘zbekiston sharafini munosib himoya qildi. Yuksak matonat ko‘rsatgan sportchilarimiz dunyoda 13-o‘rin, Osiyoda 4-o‘rin, turkiy, musulmon va MDH davlatlari orasida 1-o‘rinni egalladi. Uch sportchimiz ikki karra Olimpiya chempioni, degan sharafli nomga sazovor bo‘ldi.

Azal-azaldan muqaddas tuprog‘imiz kuragi yerga tegmagan polvonu alplar yurti bo‘lib kelgan. Tomirimizda ularning shiddati, kuch qudrati yashirin. Daryolar o‘z o‘zaniga takror va takror qaytaverganidek, bobolardan meros kuch-quvvat, noyob iqtidor, salohiyat ham avlodlar hayotida uyg‘onib boraveradi. Yillar silsilasida yig‘ilgan, toblangan bu quvvat Parij Olimpiadasida muzaffarlik yalovini baland tutgan yurtimiz vakillari misolida yana bir bor o‘z aksini ko‘rsatdi.

Sportchilarimiz katta maydonlarda g‘oliblik nash‘asini surar ekan, ularning quvvatidan, Vatanimiz bayrog‘ining yuksaklarida hilpirashidan g‘ururlidik. Ular timsolida o‘zimiz bilgan, tanigan polvonlarni esladik. Yurtimiz tuprog‘ida hayotbaxsh sir bor deya ko‘nglimizdan o‘tkazdik.

Jonbo‘zsoylik ko‘pni ko‘rgan keksalar hamon gurlunglarda yelkasi yer ko‘rmagan polvon Farmon Baymanovning chapdast va mohir kurashchi bo‘lganini aytib yuradi. Darhaqiqat, kasb-kori oddiy traktorchi, so‘ngra brigadir bo‘lgan bu yigit uzoq yillar nafaqat

qishlog‘i, balki butun Qamashi elining or-nomusi uchun maydonga chiqib, qariyb yigirma yil mag‘lubiyat nimaligini bilmay, maydonda javlon urdi.

Bir kuni qishlog‘imiz guzaridagi pochta binosi yonida akamiz Kenja Umarov polvon bilan bog‘liq bir voqeani aytib berdi:

— O‘tgan asrning 70-yillari edi. Kolxozda kassir bo‘lib ishlaydigan boyovullik Jumurod bobo katta kurashli to‘y berdi. U paytlar to‘yga kelgan mehmonlarga qo‘niq berilar, so‘ngra kurash boshlanardi. To‘yga chiroqchilik sambo bo‘yicha jahon chempioni kelgani esa kurashning katta bo‘lishidan darak edi.

Kurash daragini eshitib kelganlar son-sanoqsiz. Nihoyat hamma intiqib kutgan kurash boshlandi. Avval yosh bolalar, so‘ng o‘spirin yigitlalar, keksa polvonlar davrani qizitib bergach, bakovul hammaga eshittirib tovoq qo‘ydi.

Chiroqchilik nomdor polvon ko‘ksiga medallarini taqib chiqib, bosh tovoqni oldi. Bakovul jir soldi:

— Xo‘sh, og‘aynilar, bosh tovoqni olgan polvonga talabgor bormi?

Rizo polvon raqibiga bir necha bor turli kurash usullarini qo‘llab chalg‘itishga harakat qilib ko‘rdi. Farmon polvon esa hamon vazminlik bilan uning hamlasini bamaylixtor qaytarib, payt poylardi. Davra ahli sust olishayotgan polvonlarni faol bo‘lishga undab, tovush bera boshladi. Shu payt Farmon polvon xuddi sherdek hujumga o‘tib, raqibining yoqasidan tutdi va chirpirak qilib, yelkadan oshirib tashladi.

Qadriyat

ayyora uslublariga chaqonlik bilan chap berar, o‘zi uchun qulay fursatni o‘lja poylayotgan arslondek sabr bilan kutardi. Nihoyat u kurgan

2024-yil 9-sentabr, 182-son

ALPLAR uyg‘onmoqda, quvvat QAYTMOQDA



Davraga jimlik cho‘kdi. Hamma bir-biriga qaradi.

Nihoyat kimdir “Bor”, deb tovush berdi. Ne ko‘z bilan ko‘raylikki, maydonga hamqishlog‘imiz Farmon aka chiqib, davra aylandi. Davraboshi polvonlarni xaloyiqqa tanishtirdi. Kurash esa biz kutgandan-da shiddatli boshlandi. Chiroqchilik polvon garchi bo‘y-basti borasida Farmon polvondan ancha kichik ko‘rinsa-da, davrada o‘ziga yarashmagan beo‘xshov harakatlar qilar, buning zamarida raqibini mensimayotgani ko‘rinib turardi. Lekin Farmon polvon bosiqlik bilan kurashni davom ettirdi va uning “Yo pirim!” degan jarangdor ovozi eshittildi, polvon raqibini maydonning o‘rtasida yelkadan oshirib tashladi. Tomoshabinlar qiyqirib yubordi, davra larzaga keldi. Bakovul “Halol!”, deb qo‘lini ko‘tardi. Mag‘lub bo‘lgan Xushboq polvon esa bakovulga yalindi:

— Rostdan ham yiqildim, iltimos, yana bir qo‘l olishayin, axir men jahon chem-

pioniman, ertaga elimning ichida qanday bosh ko‘tarib yuraman... Mayli, zotni ham o‘zimming hisobimdan qo‘yaman...

Bakovul rais yordamchisi Do‘stmamat Do‘st-yorovga qaradi. Do‘stmamat aka g‘olib Farmon polvonning yoniga kelib dedi:

— Farmon, yana bir olishib ko‘rsanmi, izzatli mehmon ekan, bizdan domangir bo‘lib ketmasin, faqat endi ehtiyot bo‘lib olish, g‘irromlik qilishi ham mumkin, — dedi.

— Siz nima desangiz shu, — dedi Farmon polvon va yana davraga chiqdi.

Kurash yana shiddatli boshlandi. Chempion polvon milliy kurashda taqiqlangan va sambo kurashida qo‘llanadigan og‘ritish usullaridan alamzadalik bilan foydalana boshladi. Biroq uning raqibi ham garchi kolxozda oddiy traktorchi bo‘lsa-da, anoyi emasdi. Axir uch yillik harbiy xizmat yillarida qanchadan qancha gurji, arman, ozar, go‘ristonlik yigitlar bilan bergacha kurash tushib g‘olib bo‘lmagan! Farmon polvon raqibining

oniy lahza keldi — raqibiga chapdastlik bilan qo‘shpoycha soldi va ko‘tarib maydonga tashladi.

Davra asov daryodek toshib ketdi. Hatto chempion polvon tarafdagilar ham “voh”, deb yubordi. Farmon polvonning g‘alabasi haqidagi xushxabar butun Jonbo‘zsoyga va daryo bo‘yidagi qishloqlarga yashin tezligida tarqaldi.

Kunlarning birida Qamashi shahrida yashovchi faxriy quruvchi Xo‘jayor Jonquvvatov ukasi Xudoyor muallim bilan biznikida mehmon bo‘ldi. Gurungimiz aylanib, qishlog‘imiz polvonlariga taqalganda Xo‘jayor aka bunday dedi:



— O‘sha yillarda asli samarqandlik Muxtor Po‘latov tuman partiya qo‘mitasi birinchi kotibi edi. Kuzda, hosil bayramida katta kurash va ko‘pkari tashkil qilindi. Zot va sovrinlar salmoqli. Samarqanddan mashhur Rizo polvon ham kelgani kurashning murosasiz bo‘lishidan darak berardi. Men o‘shanda o‘spirin yigiticha, qolaversa, oilaning to‘ng‘ichi, erkasi bo‘lganim bois, bayramga xo‘jalikda brigada boshlig‘i bo‘lgan otamga ergashib borgandim.

Salomatlik sabog‘i

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me‘yor va qoidalariga e‘tiborsizlik, tarkibida tuz, qand, yog‘ miqdori ko‘p taom va shirinliklarni me‘yoridan ortiq yeyish, shuningdek, yetarli darajada vitamin va minerallar iste‘mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o‘shish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak-qon tomir, endokrin, xavfli o‘σμα kabi qator kasalliklar ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.



Shoniyoz QURBONOV,
biologiya fanlari
doktori, professor

Turmush darajasi tobora yaxshilanishi bois, taomlar xilma-xilligi ortib bormoqda. Aksariyat yeguliklar tarkibida shakar miqdori odatdagidan ko‘payib, sun‘iy ta‘m beruvchi qo‘shimchalardan foydalanish kuchaymoqda. Bunday o‘zgarishlar mahsulotlar o‘zlashtirilishida o‘ziga xos fiziologik-biokimyoviy jarayonlar buzilishiga olib kelmokda. Bularning barchasi pirovard natijada kishilar salomatligiga putur yetkazayotgani ayni haqiqat.

“Ochlik negizida hikmat bor”

Sog‘lom turmush tarzining muhim sharti hisoblangan sog‘lom ovqatlanish ushbu salbiy holatlarning oldini olishda ustuvor ahamiyatga ega. To‘g‘ri va sog‘lom ovqatlanish umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismidir. Ushbu madaniyat nima ekanini anglash, har bir davrdagi talab va qoidalariga rioya qilish o‘sis-ulg‘ayish, sog‘lom hayot kechirish, uzoq umr ko‘rish, foydali aqliy va jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishda alohida o‘rin tutadi.

Ayrimlar “Ovqatlanishda qanday qonun-qoidalar bo‘lishi mumkin? Taom bo‘lsa, to‘ygunimizcha yeb-ichib ketaveramiz-da”, degan fikr bildiradi. Bu sog‘lom hayot kechirishda juda katta xatodir. Ovqatlanish madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan qancha, qachon va qanday ovqatlanish lozimligi qadim zamonlardan beri olimlar diqqatini tortib kelgan. Masalan, Aristotel bunday deb yozib qoldirgan: “Kam yeb-ichish ham, ko‘p yeb-ichish ham salomatlikka putur yetkazadi, binobarin, oziq-ovqatlardan, ichimliklardan me‘yorida foydalanish salomatlikni mustahkamlaydi va inson uzoq vaqt sog‘lom yashaydi”.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy esa “Ochlik negizida hikmat bor, to‘qlik tagida g‘aflat bor”, deya ta‘kidlagan. Ovqatlanish va uning inson salomatligi bilan bog‘liq tibbiy va biologik (fiziologik) masalalarni, shunga ko‘ra, qator kasalliklarni aniqlash hamda davolash borasida dastlabki ilmiy asoslarni yaratgan olim Abu Ali ibn Sino‘dir. Buyuk alloma shoh asari bo‘lmish “Tib qonunlari”da ovqatlanish va salomatlik borasida “Kimki sog‘lom turmush tarziga erishmoqchi bo‘lsa, o‘z sog‘lig‘ini saqlamoqchi va mustahkamlamoqchi bo‘lsa, ovqatlanish tartibiga, iste‘mol qilindigan ovqatning sifatiga, miqdoriga, ovqatni iste‘mol qilish vaqti va uning hazm bo‘lish jarayoniga asosiy e‘tiborni qaratmog‘i lozim”, deb yozadi. Asarda qanday ovqatlanish haqida batafsil ma‘lumot berilgan, noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatida yuzaga keladigan xastaliklarni bartaraf qilish va boshqa tibbiy masalalar shunchalik ravon qilib yozilganki, “Tib qonunlari” XVIII-XIX asrlargacha butun dunyo bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Ovqatlanish borasida alloma aytgan o‘g‘illar bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmay, zamondoshlarimiz sihat-salomatligini muhofaza qilib, ko‘plab kasalliklarni davolash va bartaraf etishda asqatmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibi va miqdoriga, qabul qilinish tartibiga moslashish uzoq yillar davomida shakllanadigan jarayon bo‘lib, bunda har bir hududning tabiiy sharoiti (iqlimi, suvi, havosi, mavjud oziq-ovqat manbalari, dengiz yuzasiga nisbatan egallagan o‘rni va boshqalar) ham muayyan ahamiyatga ega. Shu bois, ovqat hazm qilish tizimi muayyan sabablarga ko‘ra, mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlarini, masalan, harorati, ta‘mi va boshqalar o‘zgarganda unga darhol moslasha olmaydi, oshqozon va ichaklarda hazm jarayoni buziladi.

Yarimtayyor mahsulotlar nega zararli?

Yer yuzida aholi soni tobora ortmoqda. Ularni yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Yetishmovchiliklarning oldini olish hosildorlikni oshirishni talab etadi. Bu esa kimyoviy o‘g‘itlardan keng ko‘lamda foydalanishga, hayvon oqsili va yog‘larini ko‘paytiradigan preparatlar, xususan, gormonlar qo‘llashga va ko‘p hosil beradigan, genlari modifikatsiya qilingan o‘simlik turlari hamda hayvon zotlarini “ixtiro” qilishga olib kelmokda. Boz ustiga aholi orasida, ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tobora mazali, yuqori kaloriyalı, shuning barobarida tez tayyorlanadigan taomlarga ishtiyoq, talab oshib bormoqda.

Tez tayyorlanadigan taomlarni ko‘paytirishning yana bir sababi zamondoshlarimizning o‘z uyida ovqat qilishga vaqti yetmasligiga bog‘liq. Natijada tez tayyorlanadigan ko‘cha taomlari bilan tamaddi qilish kundalik turmushimizga kundan kun chuqur singib bormoqda. Yana bir jihati, fast-fudlardan savdo tashkilotlari, muassasalar katta daromad ko‘radi. Tez tayyorlanadigan taomlar bozori yildan yilga o‘sis, kengaymoqda. Bunday xaridorqir mahsulotlar tarkibiga turli-tuman shirinliklar, maza va rang beruvchi moddalar (ular amalda “sintetik Ye qo‘shimchalar” deb ataladi) qo‘shib tayyorlanadi. Kolbasa, sosiska, pishloq, har xil pishiriqlar tarkibida ham tegishli miqdor va nisbatda bo‘lishi lozim oqsillar, yog‘lar, vitaminlar kamayib, inson salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi kimyoviy birikmalar ko‘p qo‘shiladi. Bunday taomlar ultra qayta ishlangan yeguliklar deyiladi. Yarimtayyor holga keltirilib muzlatilgan yoki o‘ta sovutilgan, iste‘moldan oldin qisqa vaqt qaynatib, qizitib iste‘mol qilindigan chuchvara, lag‘mon, kotlet va boshqalar ham shular sirasiga kiradi.

To‘g‘ri, bunday taomlar tezroq ovqat tayyorlashda ancha qo‘l keladi. Biroq ularni tayyorlash va iste‘mol qilishda sog‘lom ovqatlanishga zid xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi. Birinchidan, yarim tayyorlangan



muassasalarda ishlab chiqariladigan yarimtayyor mahsulotlarning iqtisodiy tejamkorlik borasidagi o‘rni haqida ham to‘xtalish aholi uchun muayyan ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik bir guruh olimlar 10 milliondan ziyod odam ustida uzoq muddatli kuzatuvlar o‘tkazib, doimiy sur‘atda ultra qayta ishlangan taomlar bilan ovqatlanib yurgan shaxslarda ko‘proq uy sharoitida — an‘anaviy usullar bilan tayyorlangan taomlar tanovul qiladiganlarga qaraganda 30 foiz ko‘proq salbiy holatlar bo‘lishini aniqlagan. Bunday salbiy o‘zgarishlar ko‘pincha yurak-qon tomir, moddalar almashinuvi va miya faoliyati bilan bog‘liq.

Gazli ichimliklar chanqoq bosmaydi

Hozirgi paytda ko‘pchilik, ayniqsa, yosh bolalarning sevimli ichimligi bo‘lmish shirin va gazli suvlar, energetik ichimliklar tarkibida sog‘liqqa zararli moddalar borligi nufuzli ilmiy laboratoriyalarda biokimyoviy, fiziologik tadqiqotlarda aniqlangan, ularning ayrimlari iste‘moldan chiqarib tashlangan.

Bugun sotuvda mo‘l-ko‘l bo‘lgan shirin va gazli ichimliklar, ko‘cha-ko‘yda tez tayyorlab sotiladigan fast-fudlarning oziq-ovqat sifatida ayrim zararli xususiyatlarini fiziologik nuqtayi nazardan tahlil qilishga urindik. Bu bilan ularni oziq-ovqat sifatida iste‘mol qilishdan tamoman voz kechish kerak, demogochi emasmiz. Faqat qayd qilingan mahsulotlardan foydalanishda ularning aytib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligi, bu esa, o‘z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etishini eslatmoqchimiz.

Ayrim mahsulotlarni iste‘mol qilish tartibi buzilsa ham zararli ta‘siri yuzaga keladi. Misol uchun, gazli ichimliklar och qoringa bo‘lsa-da, shirin mazasi uchun ancha-muncha ichib qo‘yiladi. Agar undan bir-ikki piyolasini ovqatdan keyin (ko‘pincha go‘shli taomlardan ko‘proq yeyilganda) ichilsa, hazm jarayoni yengil bo‘lishini sezish qiyin emas. Gap shundaki, go‘shli taomlar oshqozon-ichak tizimida muhit reaksiyasi, ya‘ni pH ko‘rsatkichi yoki vodorod ionlari konsentratsiyasi kislotali bo‘lsa, yengil hazm bo‘ladi. Shuning uchun

Hash-pash deguncha, samarqandlik polvon uch-to‘rt nomdor polvonni yiqitib qo‘ydi. Butun Qamashi eli mulzam bo‘lib, yerga bogdi. Shunda birinchi kotib Muxtor Po‘latov kolxozimiz raisi Do‘stmamat Do‘styorovning yoniga kelib:

— Ha, nima bo‘ldi, leytenant? Holing shu ekan-ku, nima, shunday katta Qamashi elida shu bitta shaharlik polvonga bas keladigan polvon qolmadimi yoki o‘zing chiqasanmi? — dedi.

— Men endi qaridim, Muxtor aka, lekin bir yigit bor, afsus, uni olib kelish yodimizdan chiqibdi-da, — dedi rais.

Birinchi kotib esa raisga mashinasini qo‘natib, yerning tagidan bo‘lsa ham o‘sha polvonni toptirib kelishni qat‘iy buyurdi.

Do‘stmamat rais haydovchisi Parda akaga vaziyatni tushuntirib, jo‘natib yubordi. Bakovul g‘oliblik nashidasini surayotgan polvonni ogohlantirdi:

— Bosh tovoqni olgan polvon, kiyinmay turing, sizga talabgor bor...

Bakovulning bu so‘zlari tomoshabinlarga umid berdi, ular bir-biridan so‘ray boshladi:

— Kim ekan u, bu polvonga bas kela olarmikan?..

Oradan uncha ko‘p vaqt o‘tmay, o‘zimizning Farmon akamiz nomdor polvonga talabgor bo‘lib maydonga tushdi.

Har ikki polvon bir-biri bilan salomlashib olgach, kurash boshlandi.

Rizo polvon raqibiga bir necha bor turli kurash usullarini qo‘llab chalg‘itishga harakat qilib ko‘rdi. Farmon polvon esa hamon vazminlik bilan uning hamlasini bamaylixtor qaytarib, payt poylardi. Davra ahli sust olishayotgan polvonlarni faol bo‘lishga undab, tovush bera boshladi. Shu payt Farmon polvon xuddi sherdek hujumga o‘tib, raqibining yoqasidan tutdi va chirpirak qilib, yelkadan oshirib tashladi.

Maydon olqishlardan larzaga keldi. Do‘stmamat rais “Otandan!” deb Farmon polvonni ko‘tarib oldi. Muxtor Po‘latov kelib, uning yelkasiga qoqib dedi:

— Otangga rahmat, polvon, sen bugundan boshlab mening polvonimsan! — deb yelkasiga to‘n yopdi.

Ha, rahmatli Farmon polvon ana shunday zo‘alp edi...

Mana, oradan yillar o‘tib, Farmon Baymanovdek zo‘r alplar yana yetishib chiqayotir. Ular dunyo arenalarda o‘z quvvatini namoyon etayotir — daryolar o‘z o‘zanida jo‘shqin oqayotir...

6

MEZON

2024-yil 9-sentabr, 182-son

Dastlabki suddan 25 kun oʻtgach, OʻzSSR Oliy sudi maxsus kollegiyasi uni 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qiladi. U jazo muddatini Oʻrta Osiyo lagerining Toshkent viloyatidagi “Malik” sovxozida oʻtaydi.

YANGI OʻZBEKISTON

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

MOZIYGA NAZAR

Prezidentimiz XX asrning 30-50-yillaridagi qatagʻon qurbonlari haqida fikr bildirib, bunday degan edi: “Koʻrinib turibdiki, katta salohiyatga ega yetakchilar, olimlar, adiblar, shifokorlar, oʻqituvchilar qatagʻon qilingan. Ular xalqimizning eng sara vakillari edi. Mustabid tuzumga millat koʻzini ochadigan, unga oʻzligini tanitadigan ziyoli insonlar kerak emas edi. Ularning aybi — buyuk boʻlgani”.

Rustambek SHAMSUDDINOV, Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatagʻon qurbonlari xotirasi muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor,

Dilshodbek HOMIDOV, Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatagʻon qurbonlari xotirasi muzeyi katta ilmiy xodimi

Oʻzbek kino sanʼati asoschilaridan biri, ilk oʻzbek kinoaktyori, senarist, kinorejissyor Sulaymon Umar oʻgʻli Xoʻjayev oʻsha mudhish yillarda Oʻzbekiston uchun yangi soha — kinematografiya yoʻnalishida muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan va shu tufayli qatagʻonga uchragan.

U 1892-yili Toshkentda tugʻilgan. Shahardagi Koʻkaldosh, Abulqosim madrasalari (1902-1912)da tahsil olgan. Keyinroq oʻgʻli Hamid Sulaymon bilan birga Moskvadagi kinematografiya institutini (1927-1932) tamomlagan. 1910-yildan jadidchilik harakatining ilgʻor vakillaridan biriga aylangan. Toshkentda ochilgan ilk jadid teatri — “Turon” truppassi sahnalashtirgan spektakllarda rollar ijro etgan. Behbudiy maktabida oʻqituvchilik qilgan. “Turk adom markaziyat” va “Milliy istiqlol” tashkilotlari aʼzosi (1917-1921) boʻlgan. U 1918-yil boshida bir guruh taraqqiyparvarlar bilan Qoʻqon shahri yaqinidagi qishloqlarda Turkiston muxtoriyatini koʻllab-quvvatlash va tashviqot qilish bilan mashgʻul boʻlgan.

Sulaymon Xoʻjayev XX asr 20-yillari ikkinchi yarmi — 30-yillari boshlarida yaratilgan “Ravot qashqirlari”, “Chachvon”, “Soʻnggi bek”, “Avliyo qizi”, “Tong oldidan” kabi dastlabki oʻzbek filmlarida aktyor, senariy muallifi, rejissyor assistenti va rejissyor sifatida ishtirok etgan. Jizzax qoʻzgʻoloniga bagʻishlangan “Tong oldidan” filmida 1916-yilgi xalq

BIRINCHI JADID KINOREJISSYOR

Qatagʻonga uchragan Sulaymon Xoʻjayevning hayot yoʻli

Uning taqdiri sovet qurilishi yoʻlini tanlagan va Stalin qatagʻonlarida qurbon boʻlgan jadidlar birinchi avlodining tarixidir.

U oʻz filmida tarixiy voqealarning bu vaqtga kelib, aytish mumkinki, ommabop boʻlmay qolgan versiyasini taqdim etgan edi.

Oqibat sovet maʼmurlari S.Xoʻjayevni jismonan mahv etishga qaror qildi. U 1934-yili Toshkent shahrida hibsga olindi. Uni ayblash uchun “Oʻzbekkino” kinofotokorxonasi huquqiy maslahatchisining “Tong oldidan”

unga qotillar, albatta, qoʻlga olinadi, deb javob berdim”, deydi.

Boshqa bir guvoh sudda S.Xoʻjayevni SSSR rahbarlaridan biri boʻlmish V.V.Kuybishevning tashrifini (V.V.Kuybishev 1934-yil noyabrda VKP(b) MK Siyosiy byurosidan Oʻzbekistonda “Boy-quloqlar qarshiligiga qarshi kurash” boʻyicha siyosiy komissiya tuzilishiga erishgan va oʻzi shu komissiya tarkibiga kirgan. Siyosiy komissiya eng oliy jazogacha boʻlgan jazolarni tayinlash va tasdiqlash huquqiga ega boʻlgan) 1916-yilgi qoʻzgʻalon vaqtida kelgan A.N.Kuropatkinning jazo ekspeditsiyasiga oʻxshatganini, “odamlar paxta planini bajarmagani uchun hibsga olinmoqdalar, hatto otib tashlanmoqdalar”, deganini aytgan. Sudda unga Fransiyaadagi demokratik jarayonlarni maqtash, u yerdagi partiyaal bilan sovet davlatidagi partiyaning taqqoslash orqali “davlat siyosatini obroʻsizlantirgan” degan ayblovlar qoʻyilgan.

Shunday boʻlsa-da, 1935-yil 2-fevral kuni unga 2 yillik sinov muddati belgilanadi. Shaxsiy ishiga “Aybi yetarlicha isbotlanmadi”, deb yozib qoʻyiladi. Sudning ushbu yengil qarori “notoʻgʻri qaror” sifatida talqin qilinadi. Bu holat SSSR ichki ishlar xalq komissari G.G.Yagodaning 1935-yil 14-iyunda I.V.Stalinga yozgan №56257 raqamli “Sudlar toʻgʻrisida”gi “mutlaqo maxfiy” hisobotida ham oʻz ifodasini topgan. Hisobotda S.Xoʻjayevning “Turon” tashkiloti aʼzosi boʻlgan millatchi ekani, oliy musulmon diniy maʼlumotiga ega, inqilobning dastlabki yillarida savdogarlik bilan shugʻullanganiga urgʻu beriladi. Bundan tashqari, partiya siyosatidan, ayniqsa, paxta

biri uchun lagerga 10 rubldan pul toʻlashsa-da, lagerdagilarning kiyimlari, poyabzallari eskirgan, ishga yaroqsiz, ovqatlarining kaloriyasi past va taʼmi yoqimsiz, koʻpchilik ochlikdan oʻlmoqda, agar tirik qolsam va ozodlikka chiqsam, sovet hokimiyatiga qarshi kurashaman”, deb aytganini maʼlum qilgan. Boshqa bir guvohning aytishicha, Sulaymon Xoʻjayev: “Turkiya va Eron davlatlari mustaqilligi tufayli tez rivojlanmoqda. Biz ham yaqinda mustaqil boʻlamiz va oʻshanda xalqimiz hayoti yaxshilanadi. Hozirgi kunda 30 million odam sovet davlati qamoqxonalarda yashamoqda, agar gazeta xabarlaridan xulosa chiqarsak, yangi jahon urushi muqarrar, davlatlar oʻz chegaralarini kuch bilan oʻzgartirish uchun urushga tayyorlanmoqdalar, urush sovet davlatini ham chetlab oʻtmaydi”, degan.

Sulaymon Xoʻjayev tergovda boshqa mahbuslarga qarshi guvohlik bermagan, tergovchilar ilgari surgan ayblovlarini olmagan. 1937-yil 14-avgustda Mansurbek Xudoyorxonov, Turobbek Qoʻchqorov, Sulaymon Xoʻjayev, Mirkomil Mirsharapov, Hibziddin Hasanov, Majid Nishonov, Muhiddinxoʻja Tursunxoʻjayev otuv jazosiga hukm qilinadi. Hukm 20-avgust kuni ijro etiladi.

OʻzSSR Oliy sudining Sulaymon Xoʻjayevni aybdor deb topish toʻgʻrisidagi 1935-yil 25-apreldagi hukmi 1957-yil 30-dekabrda bekor qilinadi va u reabilitatsiya etilgan. 1958-yil 12-fevral kuni Oʻzbekiston bosh prokurori oʻrinbosari, adliya katta maslahatchisi P.Kopeyko Hamid Sulaymonovning arizasiga koʻra, S.Xoʻjayev va u bilan qatagʻon qilingan kishilarga oid IIXK “uchligi”ning 1937-yil 14-avgustdagi qarori boʻyicha shikoyat protesti kiritgan. Natijada 1958-yil 20-fevralda Oʻzbekiston SSR Oliy sudi yuqoridagi qarorni bekor qilib, aybdor deb topilgan shaxslarni reabilitatsiya qilgan.

Qisqa vaqt umr koʻrgan S.Xoʻjayevning buyuk ishlarini uning avlodlari, oila aʼzolari davom ettirdi. Oʻgʻli Hamid Sulaymon, kelini Fozila Sulaymonova, nabirasi Rustam Sulaymonov va boshqa avlodlarining hayoti hamda vatanimiz taraqqiyoti yoʻlidagi xizmatlari haqida alohida kitob yozsa arziydi. Maqolani sevimli adibimiz Togʻay Murodning ushbu jumalari bilan yakunlashni maʼqul bildik: “Yulduzim hali yonadi! “Yulduzim hali davom etadi! Nevaralarim davralarda: — Yo, bobomning piri! — deya ayqirib-ayqirib olisha beradi! YULDUZIM MANGU YONADI!”

Shukuh

Odatda, baxtli boʻlishi uchun ayol kishiga koʻp narsa kerak emas, deyiladi. Yana aytiladiki: shirin soʻz, eʼtibor va bir dona gul unga kifoya, har qanday qimmatbaho sovgʻa bularning oldidan oʻtaversin. Ammo ayol kishiga yana bir narsa kerak — boʻsh vaqt. Taniqli shoiramiz Zulfiya Moʻminova “Ayolga baxt bering, muhabbat bering!” deya toʻlib-toshib yozgan edi. Bugungi tezkor davrda ular uchun vaqt ham katta ahamiyatga ega.

Ish, oʻqish, uy yumushlari, farzandlar tarbiyasi bilan adamon boʻlgan odam qachon oʻziga vaqt ajratadi? Goʻzallikka, tafakkur va bilimga eʼtibor qaratish uchun vaqt kerakligi ham bor gap.

Bolalar chaqaloqligida beshik yo belanchakda uxlayveradi. Shu paytda onalar oʻzi uchun bir oz boʻlsa-da vaqt topishi mumkin. Bola atak-chechak qilib yurishni boshladimi, bir oilada bir kishi unga parvona boʻlishi shart. Dunyoni kashf etishga otlangan “sayyoh” endi bolalar xonasiga sigʻmay mehmonxona, oshxona, hovli va koʻchaga intiladi. Jajji oyoqchalari kuchsiz koʻringani bilan bir zum

Ayolga vaqt bering

Yangi bogʻchalar onalarga yaqin koʻmakchi boʻladi

chalgʻisangiz, pildiragancha allaqancha joyga ketib qoladi.

Yana deng, buvilar-u onalarimizning gapiga qaraganda, bugungi bolalar juda shoʻx, jismonan oʻta faol, aqlan yetuk. Oʻn oʻgʻil-qizni oʻstirib, elga qoʻshgan kayvoni ham bugungi bolakayga bir soat enagalik qilishga qiyinlab qoladi. “Zamonasiga yarasha-da, uyingga bugʻdoy toʻlgurlar”, deb qoʻyadi momolarimiz nevara-chevaralariga masnur boqarkan.

Shuncha masala turganda bir savol oʻrtaga

chiqadi: nima qilmoq kerak? Javobi ham aslida, oddiy: bolalarni maktabgacha taʼlim tashkiloti, xalqona aytganda, bogʻchaga berish kerak. Bugun bolalarni qabul qilish shaffof tizimga oʻtkazildi.

Davlatimiz tomonidan maktabgacha taʼlim tashkilotlari soni va sifatini oshirish boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Oxirgi yetti yilda tizimda qamrov darajasi 27 foizdan 74,6 foizga koʻtarildi. Kelgusi besh yilda buni 80 foizga yetkazish maqsad qilingan. Shu bilan birga,

taʼlim-tarbiya mazmuni ham muhim. Bu oʻquv-metodik koʻllanmalar taʼminoti, tarbiyachilar salohiyati, yangicha yondashuvlar kabi koʻp omillarni talab etadi.

Joriy yilning 4-sentyabr kuni Prezidentimiz maktabgacha taʼlimni rivojlantirish, iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish boʻyicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Unda maktabgacha taʼlim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar koʻrib chiqildi.

Bugun qamrovni kengaytirish maqsadida xususiy bogʻchalar faoliyatiga keng yoʻl ochildi, qator imtiyozlar berilmoqda. Birgina Toshkent viloyatining oʻzida bugungi kunda 1736 ta xususiy bogʻcha ishlab turganini taʼkidlash joiz. Natijada davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlariga tushadigan bosim kamayib, ota-onalarni oʻylantiradigan navbatga qoʻyish masalasi yengil hal qilinadi. Taʼkidlash kerakki, qamrov darajasi 72,3 foizga yetkazildi. Yil oxiriga qadar bu

koʻrsatkich 78 foizga oshiriladi. Eʼtibor bering, bugungi kunda viloyatda 2318 ta maktabgacha taʼlim tashkiloti faoliyat yuritib, unda 165 ming 390 nafar oʻgʻil-qiz tarbiyalanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi arafasida Toshkent viloyatida 33 ta yangi maktabgacha taʼlim tashkiloti foydalanishga topshirildi.

— Oʻrta Chirchiq tumanidagi Mingtepa mahallasida yashayman. Koʻpincha qoʻsh-nilarimning “Bolalarning bogʻcha navbati kelishini kutaymiz. Baribir, bogʻchaga borgan bola koʻp narsa oʻrganadi-da. Muntazam tarbiyachilar nazoratida boʻladi”, degan gaplarini eshitib qolardim. Oʻylab qarasam, uyimizda oilaviy maktabgacha taʼlim tashkiloti ochish uchun yetarli sharoit bor ekan. Harakat qilib, shu ishga qoʻl urdim. Natija yomon emas, ayni paytda bogʻchamizda 2 nafar tarbiyachi 23 nafar bola bilan mashgʻul. Ota-onalar ham minnatdor, — deydi tadbirkor Nigora Kaspapova.

Ishonamizki, bolalarini ishonchli qoʻllarga topshirgan opa-singillarimiz boʻsh vaqtdan unumli foydalanadi. Bu millatning ayollari tarixda nafaqat nazokatiyu nafosati, shu bilan birga, kitobxonligi, ilm-maʼrifati bilan ham dong taratgan.

Yangi bogʻchalar koʻpayotgani haqidagi quvonchli xabarga biz ham sherikmiz.

Otabek BAKIROV, OʻZJOKU talabasi

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MOUASSIS: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “Kolopak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3063. 41369 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻzA yakuni — 23:40 Topshirildi — 23:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05